

Murojaatlarni ko'rib chiqish

Kelib tushadigan barcha yozma va og'zaki murojaatlar Markaz devonxonasida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli kirim raqami va qabul qilingan sana qayd etiladi.

Og'zaki murojaat bilan kelgan fuqarolarni tegishli bo'lim boshlig'i qabul qiladi, uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini tekshirib, murojaatda ko'tarilgan masalalar yuzasidan yozma bayonnoma tuzadi va umumiy asoslarda ijroga qaratadi.

Fuqarolarning murojaatlarida qo'yilgan masalalarni hal etish Markaz vakolati doirasiga kirmaydigan bo'lsa, uzog'i bilan besh kunlik muddat ichida tegishli organlarga jo'natiladi va bu haqda fuqaroga xabar qilinadi.

Agar fuqarolarning murojaatlarida ularni tegishli organlarga jo'natish uchun zarur ma'lumotlar bo'lmasa, bu murojaatlar xuddi shu muddat mobaynida asoslantirilgan tushuntirish bilan fuqaroning o'ziga qaytariladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq, fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishning quyidagi muddatlari o'rnatilgan:

Fuqarolarning takliflari tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddat ichida ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganish talab etadigan takliflar bundan mustasno va bu haqda taklif kiritgan shaxsga o'n kunlik muddat ichida ma'lum qilinadi.

Markazda fuqarolarning shaxsiy qabuli tegishli tartibda tasdiqlangan jadvalga asosan direktor va uning o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari, shuningdek zarur hollarda tegishli mas'ul xodimlar tomonidan fuqarolarni qabul qilish uchun mo'ljallangan maxsus xonada amalga oshiriladi.

Murojaat qilish tartibi

"Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga asosan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat organlariga ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat etish huquqiga ega.

Fuqarolarning murojaat etish huquqidan foydalanishlari boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak.

Fuqarolarning murojaatlari og'zaki yoki yozma shaklda kiritiladi. Fuqarolarning og'zaki yoki yozma murojaatlari bir xil ahamiyatga ega.

Fuqarolarning murojaatlari yakka tartibda yoki jamoa tomonidan berilishi mumkin.

Yozma murojaatlarda fuqaroning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan, ariza, taklif va shikoyatning mohiyati bayon etilgan bo'lishi kerak.

Yozma murojaatlarda murojaat etuvchining imzosi bo'lishi lozim. Murojaatga shaxsiy imzo qo'yish imkoni bo'lmagan taqdirda, bu murojaatlar uni yozib bergan shaxsning imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi, ismi, otasining ismi ham yozib qo'yiladi.

Fuqaroning familiyasi (ismi, otasining ismi), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoki u haqda soxta ma'lumotlar ko'rsatilgan, shuningdek imzo qo'yilmagan yozma murojaatlar anonim deb hisoblanadi va bu turdagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.

Fuqarolarning murojaatlari ariza, taklif yoki shikoyat ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Ariza – fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi bayon etilgan murojaatidir.

Taklif – fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarini o'z ichiga olgan murojaatidir.

Shikoyat – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to‘g‘risidagi talabi bayon etilgan murojaatidir.